

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI
OBYEKTLARINING SAMOVIY HUDUDINI QO‘RIQLASHDA
ISHONCHLI TIZIMNI TANLASH MASALALARI**

Ochilov I.N.

*O‘zbekiston respublikasi Jamoat xavfsizligi unversiteti
Qo‘riqlashni texnik- muhandislik ta‘minoti kafedrasida dotsenti,
dotsent podpolkovnik*

Hozirgi kunda butun dunyo bo‘ylab obyektlar xavfsizligini ta‘minlashda ko‘plab tizimlardan foydalanilmoqda hususan obyektning samoviy sarxadlari xavfsizligini ta‘minlashda ham. Quyida biz bir nechta samarali, zamon talablariga javob beradigan va istiqbolli tizimlarni ko‘rib chiqamiz. Shu bilan birgalikda ushbu vositalardan foydalanish tartibi va qonuniylik to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot olsak.

Uchuvchisiz uchish apparatlarini qo‘llashning horijda va mamlakatimizda huquqiy asoslari.

O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri bo‘yicha davlat qo‘mitasi tarkibida “Innovatsiya markazi” mahsus ilmiy- ishlab chiqarish korxonasi tashkil qilingan. O‘zbekistonda uchuvchisiz uchish apparatlarini boshqarish huquqi faqat “Innovatsiya markazi” mutaxassislariga berilgan. Markaz mamlakat xududida uchuvchisiz uchish apparatlarini ishlatish bilan shug‘ullanadi.

“Innovatsiya markazi” iqtisodiyot tarmoqlarida uchish apparatlarini ishlatadi, uchuvchisiz uchadigan apparatlarning texnik imkoniyatlari va bajaradigan vazifalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini olib boradi.

Shuningdek, yangi korxonalar uchuvchisiz uchadigan apparatlaridan iqtisodiyot tarmoqlarida foydalanish va qo‘llash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqadi.

Korxonalar uchuvchisiz uchadigan apparatlaridan iqtisodiyot tarmoqlarida samarali va tizimli foydalanishni tashkil qilish uchun ham javob beradi.

Tuzilma, shuningdek, uchish apparatlaridan foydalanish chog‘ida olingan ma‘lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish, qayta ishlash va saqlanishi bilan shug‘ullanadi.

Korxonalar uchuvchisiz uchadigan apparatlarini ta‘mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi va shu bilan birgalikda, apparatlarni ishlab chiqarishda va foydalanishda eng yangi xorijiy tajriba va texnologiyalardan foydalanadi.

Dronlardan foydalanish masalasi hozirgi kunda dunyo hamjamiyatida qonunchilik bilan tartibga solinayotgan yangi soha hisoblanadi. Avvaliga bu ixtiro o‘ylab topilgandan so‘ng, barchaning diqqat-e‘tibori dron olib uchirishda bo‘lgandi. Ko‘p o‘tmay, o‘yindan o‘t chiqdi va ko‘plab davlatlarda ruxsatsiz uchirishga taqiqlar

qo'yila boshlandi. Bu bo'yicha ruxsat olish tartibi turli mamlakatlarda turlicha. Jahon tajribasida bir necha tartibga solish usullari mavjud.

Qonuniy tartibda uchirish uchun ruxsat olish tartibi

Uchuvchisiz uchish apparati (dron va boshqa shu turdagi qurilmalar) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 26 noyabrdagi 322-sonli qaroriga asosan faqatgina Vazirlar Mahkamasining alohida qarori asosida ulardan foydalanish va O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishga ruxsat beriladi..

Shuningdek, ushbu qurilmadan O'zbekistonning turizm salohiyatini ko'rsatish maqsadida foydalanish (foto va videomateriallar tayyorlash), shu jumladan, chet el ijodiy guruhleri O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Madaniyat vazirligi va "O'zbekkino" milliy agentligining iltimosnomasiga asosan, Mudofaa vazirligi va Parvozlarda xavfsizligini ta'minlash Inspeksiyasiga uchish apparatlari, mas'ul shaxslar, parvoz joyi va boshqa ma'lumotlarni taqdim qilgan holda ruxsat berilad. Bu masalada to'liqroq ma'lumotni Parvozlarda xavfsizligini ta'minlash inspeksiyasining rasmiy saytidan olish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016 yil 31 avgustdagi 287-sonli "O'zbekiston Respublikasining fuqaro va davlat aviatsiyasida uchuvchisiz uchish qurilmalaridan foydalanish tartibi to'g'risidagi" Nizomga ko'ra, ushbu qurilmadan foydalanish va ro'yxatdan o'tish qoidalari keltirilgan.

Shuningdek mamlakatimizda ham dronlardan huquq tartibot organlarida, hususan mamlakatimizning turistik salohiyati yuqori bo'lgan hududlarida foydalanishni yo'lgab qo'yish maqsadida so'ngi yillarda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. (1-rasm)



1-rasm. Samarqand IIB hodimlari sayyohlik obyektlarida.

Dronlarga qarshi dron

Tokio politsiyasi xavfli uchuvchisiz “uchar” apparatlar bilan kurashuvchi maxsus otryad tuzdi. Bu otryadda maxsus dron uchuruvchilar bo‘lib bu dronlar mukammal boshqaruvga va katta quvvatga ega.(2- rasm)



2-rasm. Maxsus to‘rlar bilan jihozlangan yuqori quvvatli dronlar noqonuniy uchuvchi boshqa dronlarni ushlamoqda.

“Asahi Shimbun” nashri ma’lumotlariga ko‘ra, politsiyachi dronlar boshqa uchar qurilmalarni tutuvchi maxsus to‘rlarga ega.

Noqonuniy harakatda bo‘lgan dronlarni tutish uchun maxsus katta o‘lchamli dronlar mavjud. Ular 2x3 metr o‘lchamdagi to‘rlar bilan jihozlanadi va qoidabuzar dronlarni to‘rga tushirish va ta’qiqlangan hududdan olib chiqish uchun xizmat qiladi.

Bunday dronlarni qo‘llashdan asosiy maqsad turli tadbirlarni suratga olayotgan dronlarni qo‘lga olish emas, balki toifalangan obyektlarni kuzatayotgan va terroristik xurujlarni rejalashtirgan dronlari zararsizlantirishdan iborat hisoblanadi.

Qurilmalar maxsus obyektlarni qo‘riqlashga mo‘ljallangan bo‘lib, mamlakat uchun muhim rol o‘ynaydi. Ya’ni ular teraktlardan oqoxlantirish vazifasini ham bajaradi. Masalan, Yaponiya parlamenti binosi yaqinida shubxali uchar dronlar ko‘zga tashlansa, yirik politsiya dronlari ularni tutib kelish uchun jo‘natiladi.

Albatta, bunday ehtiyotkorlikdan ajablanmasa ham bo‘ladi. Negaki, joriy yilning aprel oyida Yaponiya bosh vaziri rezidensiyasi tomida radiokativ material joylangan dron tutilgan edi. O‘shanda qurilma tarmoq orqali boshqarilgan, rezidensiya hududida uchish chegaralangani bois, qo‘riqlovchilar xavfni o‘z vaqtida mustaqil ravishda bartaraf eta olmagan.

“Politsiyachi dronlar” loyihasi hozircha sinov jarayonlarida va dronlarni to‘rga ilintirish bilan bitta apparat shug‘ullanmoqda. Mazkur DJI Spreading Wings S900 qurilmasi 2x3 metr o‘lchamli to‘r bilan ta’minlangan. Kelajakda otryad safiga yana 10 ta dron qo‘shiladi va ular maxsus o‘rgatilgan xodimlar tomonidan boshqariladi.

Dronlarni tinchlik davrida qurollardan urib tushirish mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi.

Shu sababli huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan o'qotar bo'lmagan kichik qurilmalar ishlab chiqish yo'lga qo'yilmoqda (3-rasm).

U uchta qismdan iborat bo'ladi: Qoidabuzar UUA ni aniqlash uchun lokator, tunu-kun UUALarni nazorat qilish uchun infraqizil kamera kerak bo'ladi. Bu erda qurol sifatida snaryadlar bilan emas kuchli radiosignal otadigan, radioelektron blokirovka qiluvchi "pushka" qo'llaniladi. U dronning elektronikasini blokirovka qiladi va dron hamda uchiruvchi orasidagi aloqani so'ndiradi.

Dronlarga qarshi kurash kelgusi yillarda huquqni muhofaza qilish organlarining ustuvor vazifalaridan biri bo'ladi. Dronlar ilm-fan, ishbilarmonlik va jurnalistikada tobora ko'proq qo'llanilayotgan bir paytda, barcha mamlakatlardagi xavfsizlik bo'yicha tahlilchilar ularning terrorchilik faoliyatida foydalanish imkoniyatlarini baholaydilar - nazariy jihatdan, terroristlar ularni havodan kashf qilish uchun ishlatishi yoki hatto ularni bombardimon qilgan bo'lishi mumkin (12-rasm). 2013 yil dekabr oyida Pekindagi 1200 askar, ikkita qiruvchi samolyot va 2 vertolyot ogohlantirish bilan poytaxt aeroporti hududiga uchib ketgan dron uchuvchisi operatorlarini to'xtatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning 2018 yil 11 yanvardagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi.
2. Achilov F.B., Yoqubov U.A., Dadaboyev A.N., Tadjitdinov G'.B., Z.Sh.Alimardonov. Jangovar xizmatni muhandislik texnikalari bilan ta'minlash. Darslik. – T., 2018.
3. Achilov F.B., Dadaboyev A.N., Tadjitdinov G'.B. Radio-telemexanik tizimlaridan foydalanish va ta'mirlash. Darslik. – T., 2018.
4. Yoqubov U.A., Eshquvatov Sh.X.. Obyektga kirish-chiqish jarayonini nazorat qiluvchi va boshqaruvchi tizimlar. Darslik. – T., 2018.
5. Yoqubov U.A., Dadaboyev A.N. Obyektlar xavfsizligini tizimli ta'minlash konsepsiyasi. O'quv qo'llanma. – T., 2018.
6. Ochilov I.N. Texnik qo'riqlash vositalarining elektr ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T., 2018.
7. Achilov F.B., Chuev A.P. Qo'riqlash signalizatsiyasida qo'llaniladigan asosiy atama va tushunchalar. Izohli lug'at – T., 2016.
8. Мелик-Адамов и другие, Технические средства охраны – М., 1978.
9. Магауенов Р.Г. Системы охранной сигнализации: основы теории и принципы построения. Учебное пособие – М., 2008.

Internet manbalari:

www.video-control.ru, www.secnews.ru, www.visionpro.ru,
www.aamsystems.ru, www.sigma-is.ru, www.bolid.ru, www.guardtec.ru,
www.iss.ru, www.hitsec.ru, www.itv.ru, www.itv.com, www.rielta.ru,
www.smartec-cctv.ru, www.ktso.ru, www.tso.ru, www.umirs.ru, www.Lex.uz,
www.Ziyonet.Uz